

INNOVATSION FAOLIYAT VA INTELLEKTUAL MULKNING KORXONA INVESTITSION JOZIBADORLIGIDAGI O'RNI



Julbayev Otabek Melibayevich

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi
magistranti*

ORCID: 0009-0004-8343-576X

Annotatsiya: Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion faoliyat va intellektual mulk muhim omil hisoblanadi. Investitsion jozibadorlik faqat moliyaviy barqarorlik bilan emas, balki korxonaning innovatsion salohiyati, patent va litsenziyalar portfeli, ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli, investitsiya siyosatida intellektual mulkni to'g'ri baholash va undan samarali foydalanish korxonaga qo'shimcha ustunliklar yaratadi.

Kalit so'zlar: Innovatsion faoliyat, intellektual mulk, investitsion jozibadorlik, patent, litsenziya, raqobatbardoshlik, ilmiy-tadqiqot ishlari, innovatsion strategiya.

Abstract: In modern economic conditions, innovation and intellectual property are crucial factors in ensuring the competitiveness of enterprises. Investment attractiveness is determined not only by financial stability but also by innovation capacity, the portfolio of patents and licenses, and the effectiveness of R&D activities. Therefore, properly evaluating and effectively utilizing intellectual property in investment policy creates additional advantages for enterprises.

Key words: Innovation, intellectual property, investment attractiveness, patents, licenses, competitiveness, research and development, innovation strategy.

Аннотация: В современных экономических условиях инновационная деятельность и интеллектуальная собственность являются важными факторами обеспечения конкурентоспособности предприятий. Инвестиционная привлекательность определяется не только финансовой устойчивостью, но и инновационным потенциалом предприятия, портфелем патентов и лицензий, а также эффективностью научно-исследовательских работ. Поэтому правильная оценка и эффективное использование интеллектуальной собственности в инвестиционной политике создают для предприятия дополнительные преимущества.

Ключевые слова: Инновационная деятельность, интеллектуальная

собственность, инвестиционная привлекательность, патент, лицензия, конкурентоспособность, научно-исследовательские работы, инновационная стратегия.

Kirish. Korxonalarning investitsion jozibadorligi bugungi kunda ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tushuncha faqatgina korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari yoki ishlab chiqarish samaradorligi bilan cheklanib qolmay, balki uning strategik rivojlanish darajasi, raqobatbardoshlik salohiyati va bozor sharoitlariga moslashuvchanligi bilan ham chambarchas bog'liqdir [1];[2]. Shu nuqtai nazardan, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va intellektual mulkni samarali boshqarish korxonalar investitsion jozibadorligini ta'minlovchi eng muhim mezonlardan biri sifatida qaralmoqda.

Patentlangan texnologiyalar, yangi mahsulot dizaynlari, brendlar va nou-xau kabi intellektual mulk ob'ektlari korxonaning kelajakdagi daromadlarini kafolatlaydigan resurslar hisoblanadi [4]; [5]. Bunday resurslarga ega bo'lgan korxonalar investorlar uchun ishonchli hamkor bo'lib, ular o'z faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali barqaror rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, investitsion qarorlarni qabul qilishda nafaqat moliyaviy natijalar, balki korxonaning ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligi va intellektual mulkni tijoratlashirish qobiliyati ham alohida ahamiyat kasb etadi [6].

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali korxonalar quyidagi ustunliklarga ega bo'ladi:

- **Bozorni kengaytirish:** yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish orqali iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish va yangi segmentlarga kirib borish imkoniyati paydo bo'ladi [3].

- **Monopol huquqlarni shakllantirish:** patent va litsenziyalar orqali raqobatchilardan ustunlikka erishiladi, bu esa investorlarga qo'shimcha kafolat beradi [4].

- **Daromad manbalarini diversifikatsiya qilish:** innovatsion texnologiyalar va intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish orqali qo'shimcha daromad keltiruvchi yo'nalishlar shakllanadi [5].

- **Xalqaro bozorlarga chiqish:** intellektual mulkni tijoratlashirish hamda innovatsion mahsulotlarni eksport qilish orqali global raqobatbardoshlik ta'minlanadi [8].

- **Investorlar ishonchini oshirish:** ilg'or texnologiyalarga ega va intellektual mulk portfeli boy bo'lgan korxonalar kapitalni jalb qilishda ancha qulay sharoitlarga ega bo'ladi [7].

Innovatsion faoliyat va intellektual mulkni boshqarish nafaqat korxonaning ichki rivojlanishini, balki uning tashqi investitsiyalar uchun jozibadorligini ham belgilovchi muhim omildir. Shu sababli, zamonaviy sharoitda korxonalar o'z investitsion

siyosatini ishlab chiqishda innovatsion yondashuvlarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilashlari lozim [9].

Mavzuga oyd adabiyotlar sharhi. Investitsion jozibadorlik nazariyasi bo'yicha dastlabki yondashuvlar asosan korxonaning moliyaviy barqarorligi va ishlab chiqarish samaradorligini baholash bilan cheklangan [1]. Biroq zamonaviy sharoitda ushbu ko'rsatkichlar bilan bir qatorda innovatsion faoliyat va intellektual mulkni boshqarish ham investitsiya siyosatida muhim mezon sifatida e'tirof etilmoqda [2].

Innovatsion faoliyat korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Schumpeter (1934) innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning "dinamik dvigateli" sifatida baholagan bo'lib, uning fikricha, yangi mahsulot va texnologiyalar ishlab chiqarish orqali korxonalar nafaqat ichki bozor, balki xalqaro bozorda ham ustunlikka erishadilar [3]. Ushbu nazariya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki intellektual mulk orqali himoyalangan innovatsiyalar investorlar uchun xavflarni kamaytiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Intellektual mulk masalasiga oid adabiyotlarda uning investitsion jozibadorlikka bevosita ta'siri alohida ta'kidlanadi. Masalan, Hagedoorn va Cloudt (2003) tadqiqotida patentlar va litsenziyalar mavjudligi korxona qiymatini oshirishi va qo'shimcha kapital jalb etishini tezlashtirishi ko'rsatib o'tilgan [4]. Shuningdek, Hall (2010) o'z ishida intellektual mulk huquqlarining korporativ innovatsion strategiyalarni amalga oshirishda muhim o'rin tutishini ilmiy asoslab bergan [5].

O'zbekiston sharoitida ham innovatsion faoliyat va intellektual mulk masalasi iqtisodiy rivojlanishning strategik yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Karimov (2019) ta'kidlaganidek [6], mahalliy korxonalarda intellektual mulkdan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, Rakhimov va Shermatova (2021)ning tadqiqotlarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali korxonalarning xalqaro investorlarga jozibadorligi oshishi mumkinligi qayd etilgan [7].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, intellektual mulk ob'ektlari – patent, litsenziya, brend va nou-xau – investitsion qaror qabul qilish jarayonida tobora muhim rol o'ynamoqda. OECD (2020) hisobotida innovatsion faoliyat va intellektual mulkka asoslangan korxonalar kapital bozorida yuqori baholanishi qayd etilgan. Bu esa, o'z navbatida, investitsion jozibadorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida ularning ahamiyatini yanada oshiradi [8].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, korxona investitsion jozibadorligini oshirishda innovatsion faoliyat va intellektual mulkni boshqarish eng muhim strategik yo'nalishlardan biridir. Bunda nafaqat ichki bozor imkoniyatlari, balki xalqaro tajribani ham hisobga olish muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishda innovatsion faoliyat va intellektual mulkning o'рни nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonaning investitsion jozibadorligi ko'p jihatdan uning innovatsion salohiyati va intellektual mulk portfeli bilan belgilanadi [5]; [8]. Innovatsion faoliyat nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish orqali korxonaga qo'shimcha daromad manbalarini taqdim etadi. Intellektual mulkning samarali boshqarilishi esa korxonaga monopol huquqlar beradi, bozorni kengaytiradi hamda investorlar uchun uzoq muddatli ishonchni mustahkamlaydi [6].

1-jadval.

Innovatsion faoliyatning investitsion jozibadorlikka ta'siri (2024)

Ko'rsatkichlar	Innovatsion korxonalar (%)	An'anaviy korxonalar (%)
Moliyaviy barqarorlik darajasi	78	52
Bozor ulushining o'sishi	65	41
Investorlarni jalb qilish ko'rsatkichi	72	46
Xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati	61	33
Patent va litsenziyalardan daromad olish	48	12

Manba: OECD (2024), "Innovation and Investment Attractiveness Report"

Tahlil natijalariga ko'ra, innovatsion faoliyat va intellektual mulkka ega bo'lgan korxonalar:

- raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar taklif qiladi;
- xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- patent va litsenziyalar orqali qo'shimcha daromad manbalarini shakllantiradi;
- investorlar oldida barqaror va istiqbolli loyiha sifatida namoyon bo'ladi [10].

2-jadval.

Intellektual mulkning investitsion jozibadorlikdagi o'rni

Intellektual mulk elementi	Investitsion jozibadorlikka ta'siri
Patentlar	Innovatsion ustunlik yaratadi, investorlar uchun risklarni kamaytiradi
Brend va savdo belgisi	Korxona obro'sini oshiradi, iste'molchi ishonchini kuchaytiradi
Litsenziyalar	Qo'shimcha daromad manbai yaratadi, xalqaro hamkorlikni kengaytiradi
Nou-xau va texnologiyalar	Yangi mahsulot ishlab chiqishni jadallashtiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi
Mualliflik huquqlari	Innovatsion loyihalarni huquqiy himoya qiladi, investorlar ishonchini oshiradi

Manba: WIPO (2024), "Intellectual Property and Investment Competitiveness Study"

Shu bois, korxonalarning investitsion jozibadorligi faqat moliyaviy ko'rsatkichlar

bilan emas, balki ularning innovatsion salohiyati va intellektual mulkni boshqarish darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonaning investitsion jozibadorligi faqat moliyaviy barqarorlik va ishlab chiqarish samaradorligiga bog'liq emas. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi:

1. Innovatsion faoliyat: Yangi mahsulotlar, texnologiyalar va xizmatlar ishlab chiqish orqali korxonalar bozor ulushini oshiradi, raqobatchilardan ustunlikka ega bo'ladi va qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi [3].

2. Intellektual mulk: Patentlar, litsenziyalar, brendlar va nou-xau korxonaning qiymatini oshiradi, investorlar uchun risklarni kamaytiradi va uzoq muddatli ishonchni mustahkamlaydi [5].

3. Ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligi: R&D faoliyati korxonaning innovatsion salohiyatini oshiradi, ichki rivojlanishni ta'minlaydi va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi [8].

4. Investorlar ishonchi: Intellektual mulk portfeli va innovatsion strategiyani amalga oshirayotgan korxonalar kapital jalb etishda yuqori imkoniyatlarga ega bo'ladi [7].

Taklif o'rnida quydagilarni:

1. Investitsion siyosatni yangilash: Korxonalar o'z investitsion siyosatini ishlab chiqishda innovatsion rivojlanish va intellektual mulkni boshqarish strategiyalarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilashlari zarur.

2. R&D faoliyatini kuchaytirish: Innovatsion tadqiqot va tajriba ishlari uchun byudjetni oshirish, ilmiy loyihalarni moliyalashtirish va hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish lozim.

3. Intellektual mulkni huquqiy himoya qilish: Patentlar, litsenziyalar va brendlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini soddalashtirish, korxonalarga huquqiy kafolatlarni kuchaytirish tavsiya etiladi.

4. Xalqaro tajribani joriy etish: OECD va WIPO kabi xalqaro tashkilotlar tajribasini o'rganish, intellektual mulkni tijoratlashtirish va innovatsion mahsulotlarni eksport qilish mexanizmlarini yaratish lozim.

5. Investorlar bilan aloqalarni rivojlantirish: Innovatsion portfel va intellektual mulk asosida investorlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish, kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Shunday qilib, korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishda nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki innovatsion salohiyat va intellektual mulkni samarali boshqarish ham muhim strategik omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Damodaran A. (2012) Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. 3rd ed. Hoboken: Wiley.
- 2.Porter M.E. (1998) Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.
- 3.Schumpeter J.A. (1934) The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press.
- 4.Hagedoorn J. & Cloudt M. (2003) ‘Measuring innovative performance: Is there an advantage in using multiple indicators?’ Research Policy, 32(8), pp. 1365–1379.
- 5.Hall B.H. (2010) ‘The Impact of Intellectual Property Rights on Innovation: Evidence from the U.S. Patent System.’ Economics of Innovation and New Technology, 19(3), pp. 219–247.
- 6.Karimov O. (2019) Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish va intellektual mulkni boshqarish mexanizmlari. Tashkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
- 7.Rakhimov A. & Shermatova D. (2021) ‘Investitsion jozibadorlik va intellektual mulk: O‘zbekiston sharoitida amaliy tadqiqotlar.’ O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 3(2), pp. 45–59.
- 8.OECD (2020) OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2020. Paris: OECD Publishing.
- 9.WIPO (2021) World Intellectual Property Indicators 2021. Geneva: World Intellectual Property Organization.
10. Tashkent State University of Economics (2020) Innovatsion rivojlanish va investitsion faoliyatni boshqarish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari. Tashkent: TSUE Press.